

**YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKNING OLDINI OLISHDA KOMPLEKS
YONDASHUV: HUQUQIY, IJTIMOY VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARNI
INTEGRATSIYALASH**

Otamurodov Farrux G'ofurjon o'g'li

“Xalqaro huquq” fakulteti 3-kurs talabasi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti.

e-pochta: otamurodovfarrukh@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19152883>

Annotatsiya. Mazkur tezisda yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish masalasi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Giyohvandlik zamonaviy jamiyatda nafaqat sog'liqni saqlash masalasi, balki ijtimoiy barqarorlik, milliy xavfsizlik va millat genofondiga tahdid soluvchi ko'p tarmoqli ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida baholanadi va tahlil qilinadi.

Tezisda yoshlar qatlaminin jamiyat hayotidagi o'rni asoslab berilib, ularning giyohvandlik muhitiga jalb etilishi uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ilmiy nuqtai nazardan yoritib beriladi.

Tezisda amaldagi normativ-huquqiy tizim, ijtimoiy siyosat mexanizmlari, oila instituti, ta'lim tizimi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati o'zaro uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida giyohvandlik muammosi ommalashishiga olib kelayotgan kamchiliklar, ularning sabablari tahlil qilinib, kompleks yondashuv orqali ushbu kamchiliklar darajasini kamaytirish va millat genofondini asrashning muhim shartlari tahlil qilinadi.

Abstract. This thesis analyses the issue of preventing drug abuse among youth based on a comprehensive approach. Drug addiction in modern society is evaluated and examined not only as a public health problem, but also as a multifaceted social and legal phenomenon that pose a threat to social stability, national security and the nation's gene pool. The thesis substantiates the role of young people in the life of society and scientifically highlights that their involvement in drug-related environments may lead to long-term social consequences. The thesis examines the existing regulatory and legal framework, social policy mechanisms, the institution of the family, the education system and the activities of law enforcement agencies in their interrelated and interconnected context. Furthermore, the shortcomings and causes contributing to the spread of drug abuse among youth are analyzed and the important conditions for reducing its level through a comprehensive approach and for preserving the nation's gene pool are explored.

Globalashuv va raqamli o'zgarish jarayonlari paytida giyohvandlik muammosi o'zining an'anaviy shakllaridan o'zgarib, ko'p tarmoqli ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida namoyon bo'lib bormoqda. Giyohvandlik moddalarning noqonuniy aylanishi transmilliy jinoyatchilik va raqamli axborot platformalari bilan uzviy bog'lanib, ayniqsa yoshlarning mazkur jarayonga jalb etilish xavfini va ko'lamini kuchayishiga olib kelmoqda.

Biz bilamizki yoshlar jamiyatning muhim ahamiyatga ega bo'lgan qismi hisoblanadi.

Ularning salomatligi, ijtimoiy faolligi va huquqiy ong darajasi davlatning uzoq muddatli taraqqiyot ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning giyohvandlik muhitiga jalb etilishi nafaqat yoshlar uchun salbiy oqibatlarni, balki ularning mehnat salohiyatida pasayish, jinoyatchilik darajasining ortishi, aholi o'sish

muvozanatning buzilishi va tibbiy salomatlik ko'rsatkichlarining yomonlashuvi kabi keng qamrovli ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga olib keladi. O'zbekistonda giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha muayyan normativ-huquqiy baza shakllangan bo'lib, profilaktik tadbirlar va choralar amalga oshirilmoqda va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tizimli ishlar olib borilayotganini ham ko'rishimiz mumkin.

Biroq mavjud mexanizmlar ko'p hollarda alohida-alohida institutlar doirasida faoliyat yuritayotgani sababli, ularning o'zaro hamkorligi yetarli darajadan pastligicha qolmoqda. Shuning uchun ham tadqiqotning asosiy maqsadi mavjud tizimning tarkibiy elementlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganib, ularni yagona kompleks model asosida uyg'unlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yoshlar o'rtasida giyohvandlik masalasini ijtimoiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo bunga olib keladigan sabablarni sanab o'tishimiz lozim. Giyohvandlik – faqatgina yoshlarning shaxsiy tanlovi, qarori natijasi emas, balki ko'pincha ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, ota-ona nazoratining sustligi kabi bir qator bir-biriga bog'liq sabablar natijasidir. Shu bois bu muammoni faqatgina bir tomonlama emas, balki tizimli ijtimoiy-huquqiy yondashuv asosida kamaytirish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z-o'zidan jamiyatda tarbiya muassasalari, mahalla faxriylari va huquqni muhofaza etuvchi organlarning birgalikda ishlash zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbekistondagi amaldagi huquqiy holatni tahlil qiladigan bo'lsak. Giyovandlikka qarshi amaldagi huquqiy tizim tomonidan belgilangan qonunlar, normativ huquqiy hujjatlar asosan jazolash va jinoiy huquqiy javobgarlik choralari qo'llash usullariga tayanadi. Masalan, amaldagi qonunchilik asosan jinoiy va ma'muriy javobgarlik choralariga asoslanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 270–276-moddalarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy tayyorlash, saqlash, tashish yoki o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu normalar orqali davlat giyohvandlik moddalar noqonuniy aylanishini keskin cheklash va jamoat xavfsizligini ta'minlashni maqsad qiladi.^[1] Amaliyotda esa ko'pincha jazolashga urg'u berilishi kuzatiladi, bu esa profilaktika va reabilitatsiya yo'nalishlarining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, ma'muriy-huquqiy choralar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi doirasida nazarda tutilgan bo'lib, giyohvand moddalarni oz miqdorda saqlash yoki iste'mol qilish bilan bog'liq holatlarda qo'llaniladi.^[2] Bunday choralar ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lsa-da, ularning tarbiyaviy samaradorligi ko'p jihatdan profilaktika ishlari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishiga bog'liq.

Bu kabi javobgarliklar amaldagi qonunlarimiz bilan belgilangan bo'lishiga qaramasdan, yoshlar o'rtasida takroriy huquqbuzarlik holatlari hali ham uchrab turmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 23-iyunda joylagan ochiq ma'lumotlar statistikasiga ko'ra giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar sodir etganlar soni jami yillar kesimida oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin.^[3] (1-jadvalda keltirilgan)

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453#-268551>

² O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, <https://lex.uz/docs/-97664>

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	3464	3154	2616	2889	3261	3523	4895	5257	7200

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 23-iyunda joylagan ochiq ma'lumotlar statistikasi

Bu ko'rsatkichlar shunchaki raqamlar emas, balki giyohvandlikka qarshi kurashish va oldini olishga qaratilgan qonunlarimiz bo'lishiga qaramasdan, tizimda hali-hanuz kamchiliklar va muammolar mavjudligini anglatadi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlar yildan-yilga oshib borishi, faqat jazolashga asoslangan huquqiy tizim ijobiy natija bermasligiga bir isbotdir. Bu yerda yoshlar o'rtasida giyohvandlik illatiga qarshi kurash profilaktikasini oshirish, rehabilitatsiya tizimini yanada takomillashtirish kabi masalalar ham muhim ahamiyatga egadir.

Biz aytib o'tgan ijtimoiy o'lovlar oila, ta'lim tizimi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy mexanizmlarni, normalarni yoshlar o'rtasida yoyilishiga, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga o'zining hissasini qo'shishi lozim. Bu jarayonlar bir nechta ijtimoiy institutlar orqali samarali amalga oshiriladi. Avvalo, oila instituti shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Har qanday farzandning qadriyatlari, xulq-atvori va hayotga munosabati avvalo oilada shakllanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida ham oila institutining roli va davlat muhofazasida ekanligi ta'kidlab o'tilgan.^[4] Jamiyatdagi oilalarda ota-onalarning e'tiborsizligi, nazoratning sustligi yoki ijtimoiy muhitdagi salbiy omillar yoshlarning xavfli guruhlariga, turli xil yomon yo'nalishlarga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois giyohvandlik profilaktikasida ota-onalarning huquqiy savodxonligini oshirish, oilaviy nazorat va muloqotni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega masaladir. Oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlar oldini olishga qaratilgan mexanizmlarning asosiy bo'g'ini bo'lishi kerak. Ta'lim muassasalari yoshlar bilan tizimli va to'g'ridan-to'g'ri ishlash imkoniyatiga ega eng muhim institutdir. Maktab va oliy ta'lim tizimida nafaqat nazariy ma'lumot berish orqali, balki sog'lom turmush tarzi, psixologik treninglar va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan amaliy dasturlarni kengaytirish orqali ham yoshlar o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashishda yordam berish mumkin. Profilaktika ishlari bir martalik ma'ruzalar bilan cheklanmasligi, balki doimiy psixologik monitoring, xavfli guruhdagi o'quvchilar bilan individual ishlash va ota-onalar bilan hamkorlik asosida olib borilishi lozim.

Keyingi institut mahalla tizimi, O'zbekiston sharoitida o'ziga xos ijtimoiy nazorat mexanizmi hisoblanadi. Hududiy darajada yoshlar bilan ishlash, ularning bandligini ta'minlash, sport va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali salbiy muhitning oldini olish mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari esa rehabilitatsiya, psixologik yordam va ijtimoiy moslashtirish jarayonida, ayniqsa, giyohvand moddalarni iste'mol qilgan yoshlarni jamiyatga qayta integratsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145>

Amaliyotdan shuni ko‘rishimiz mumkinki, ijtimoiy institutlar faoliyati ko‘pincha alohida-alohida olib boriladi va bu biz yuqorida keltirib o‘tgan giyohvandlik darajasini o‘shirishga olib kelmoqda. Holbuki, giyohvandlikka qarshi samarali kurashish uchun ichki ishlar organlari, sog‘liqni saqlash tizimi, ta‘lim muassasalari, mahalla va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida uzviy axborot almashinuvi va muvofiqlashtirilgan faoliyat zarurdir.

Biz mavzuni boshida aytib o‘tgan kompleks yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi.

Ya‘ni, giyohvandlikka moyilligi bor yoshlarni erta aniqlash va individual ishlash, giyohvandlik illati qurboni bo‘lganlar uchun majburiy va ixtiyoriy reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish, yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan hududiy dasturlar sonini ko‘paytirish, profilaktika samaradorligini baholovchi aniq indikatorlar joriy etish va ijtimoiy institutlar hamkorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlar asosiy tayanch bo‘lsa-da, real natija ijtimoiy institutlarning faol ishtiroki va o‘zaro hamkorligisiz ta‘minlanmaydi. Kompleks va integratsiyalashgan modelgina ushbu muammoning ildiz sabablarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi, Maxsus qismi, XIX bob, 270-276-moddalar <https://lex.uz/docs/-111453#-268551>
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi, 56-modda <https://lex.uz/docs/-97664>
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2025-yil 23-iyunda joylagan ochiq ma‘lumotlar statistikasi, Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etganlar soni (jami) bo‘limi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, XIV bob 76-modda <https://lex.uz/docs/-6445145>